

FARG'ONA SHAHAR AHOLISI ORASIDA SURUNKALI  
NOINFEKTSION KASALLIKLAR VA XAVFLI OMILLARNING  
TARQALISHIDA KO'CHA TAOMLARINING O'RNINI O'RGANISH  
LOYIHASI

Sadikov U.T  
Jurayev M.M  
Solijonova N

*CAMU Ichki kasalliklar kafedrası, Farg'ona, O'zbekiston*  
*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Farg'ona, O'zbekiston*

**Muammoning dolzarbligi:** Surunkali yuqumli bolmagan kasalliklar ( yurak qon-tomir kasalliklari, insult,nafas sistemasi surunkali kasalliklari, havfli o'smalar, qandli diabet va b.) butun dunyoda aholi nogironligi va o'limining asosiy sabablaridir. Jahon sag'liqni saqlash tashkilotining (JSST) ma'lumotlariga ko'ra har yili yuqumli bo'lmagan kasalliklar 40 million odamning umriga zavol bo'lmoqda, bu esa dunyo bo'yicha barcha o'lim holatlarining 70 % ni tashkil qiladi.

O'zbekistonda barcha o'lim holatlarining 78 foizi yuqumli bo'lmagan kasalliklar tufayli yuz bermoqda. Aholining jinsi va yoshi bo'yicha standartlashtirilgan o'lim sabablari umumiy tuzilmasida birinchi o'rinni qon aylanish tizimi kasalliklari (69 %) egalladi. Ulardan keyin xavfli o'smalar (8 %), qandli diabet (3%) va nafas olish a'zolarining surunkali kasalliklari (3%) joy oldi. Aholining yarmi ortiqcha vaznga ega ekanligi (tana vazni indeksi  $\geq 25$  kg/m<sup>2</sup>), ayniqsa, katta yoshdagi aholining har beshinchisida semizlik aniqlangani (tana vazni indeksi  $\geq 30$  kg/m<sup>2</sup>), 46 foizida qondagi giperxolesterinemiya qayd qilingani, deyarli uchdan bir qismida yuqori arterial bosim ( $\geq 140/90$  mm Hg) qayd qilinishi, aholining 9 % nahorda giperglikemiyaga egaligi ( $\geq 6,1$  mol/l), aholi orasida bir kunda iste'mol qilinayotgan tuz miqdori o'rtacha 14,9 grammni tashkil qilishi, bu esa JSST tavsiya qilgan ko'rsatkichdan (kuniga ko'pi bilan 5 gr) 3 baravar ortiqligi e'tiborga sazovordir. Shu boisdan O'zberiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-derabrdagi “ Yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari tog'risida” gi qarorida ko'zda tutilgan aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish va boshqarish bo'yicha Kontsepsiya aynan ratsional ovqatlanish odatlarini keng targ'ib qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy



tadqiqotlar o‘tkazish kabi tadbirlar xalq salomatligini mustahramkash borasida ajoyib g‘amxo‘rlik ekanini e‘tirof etish darkor.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq shahar va qishloq aholisining **“ko‘cha taomlari”**, yani tayyor ozuqa mahsulotlarini ko‘p ist‘emol qilishi, ularning savdosi bilan shug‘ullanuvchi do‘konlarning ko‘payishi bugungi kunda ushbu omilning aholi salomatligiga qanchalik ta‘sir korsatayotganini tadqiqot qilish darkor ekanligini anglatadi. Darxaqiqat, ko‘cha ovqati Markaziy Osiyo, jumladan Ozbekiston aholisining ovqatlanish tarzida salmoqli o‘rin egallaydi. U qulayligi, nisbatan arzon, oson erishish mumkinligi va keng tarqalganligi bilan odamlarning kundalik ovqat ratsioniga aylangan. JSST ning qo‘shni Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalarida o‘tkizgan tadqiqotlarida ko‘cha ovqatida trans-yog‘lar va osh tuzining me‘yoridan ortiq ekanligi aniqlangan. Ushbu omillarning muntazam ta‘siri aholi orasida surunkali yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning ko‘payish havfini yaratadi. Ushbu muammo bo‘yicha Respublikamizda, jumladan Farg‘ona viloyati aholisi orasida ilmiy tadqiqotlar otkazilmagan. Yuqoridagi ma‘lumotlar mazkur tadqiqotni rejalashtirishga asos boldi.

**Tadqiqot usuli:** Aholining rondonizirlangan (tasodifiy tanlangan) representativ guruhida bir martalik epidemiologik tekshirish o‘tkaziladi.

#### **TADQIQOT VAZIFALARI:**

1. Farg‘ona shahar aholisi orasida ko‘cha ovqatini ist‘emol qiluvchi aholi salmog‘ini aniqlash va ularni guruxlarga ajratish (kogorta).
2. Ko‘cha ovqatining ozuqa xarakteristikasini organish
3. O‘rganiladigan populyatsiyada surunkali noinfektsion kasalliklar va havfli omillarning tarqalishini aniqlash.
4. Populyatsiyada surunkali noinfektsion kasalliklar va havfli omillarining ko‘cha ovqati bilan korrelyatsiyasini o‘rganish.
5. Tadqiqot natijalari asosida aholi orasida surunkali noinfektsion kasalliklar va havfli omillarning profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish

Авторская справка

Фамилия, имя, отчество		Садиков Умаржон Турсунбаевич
Место работы		Central Asian Medical University
Должность, ученая степень, звание		Заведующий кафедрой внутренних болезней, к.м.н.
Почтовый адрес с индексом		Г.Фергана, ул. Маърифат 8 А.



“FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS  
INTERDISCIPLINARY SCIENCES”

ITALIA

Телефон мобильный и/или рабочий	+998901662460
Электронный адрес	<a href="mailto:umarjon.sadikov@mail.ru">umarjon.sadikov@mail.ru</a>
Вид участия	Публикация тезиса

